

**Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti
Axborot-resurs markazida bajarilgan
ishlar yuzasidan**

2023- yil yillik xisobot

ANDIJON-2023

**Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Axborot-resurs
markazida bajarilgan ishlar yuzasidan 2023- yil yillik xisobot**

MA'LUMOT

Axborot-resurs markazi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-xuquqiy xujjatlarining mavjudligi va ish yuritish tizimining xolati. Institut Axborot-resurs markazi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-xuquqiy xujjatlar mavjud bo'lib, o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Qonunlari xujjatlari, institut rahbariyatining ichki buyruqlari, ARM Nizomi (2022 yilda tasdiqlangan), lavozim yo'riqnomasi (2021 yilda tasdiqlangan) va ARMning ish rejalari asosida amalga oshiradi.

Axborot-resurs markazining umumiy fondi (nashriy, elektron, brayl, audio, badiiy adabiyotlar soni) (ma'lumotlar jadvallar asosida shakllantiriladi)

Axborot-Resurs markazi umumiy fondi 152359 nusxa, 25 054 nomdani tashkil etadi, shundan 2023-yil yil davomida darsliklar 73645 nusxa (2600nomda), o'quv qo'llanmalar 10476 nusxa (1120 nomda), ilmiy adabiyotlar 23 205 nusxa (2089 nomda), badiiy adabiyotlar 25 054nusxa (1325 nomda), xorijiy adabiyotlar 712 nusxa (198 nomda) va boshqa adabiyotlar 6847 nusxa (198nomda) ni tashkil etadi. Elektron resurslar 12420 nomda, audio 12 420 nomda, badiiy 465 nomdani tashkil etadi.

Yil davomida Gazeta va jurnallar 467 nusxa, (20 nomda) dessertatsiya va avtoreferatlar 960 nusxa (795 nomda) ni tashkil etadi.

Axborot-resurs markazida yil davomida jami Foydalanuvchilar soni 4471 shundan foydalanuvchi professor o'qituvchilar soni 471 nafar, ishchi, xizmatchi kitobxonlar soni 238 nafar, foydalanuvchi talabalar 3762 nafar. Kitob berilishi 27 9866 kitobxonlar qatnovi 108 926 nafarni tashkil etadi.

Axborot-Resurs markazida institutning barcha ta'lim yo'nalishlarida o'tiladigan fanlarning mavjud o'quv adabiyotlarini elektron bazasini shakllantirish bo'yicha <https://Library.andqxi.uz> sahifasiga 2023-yil yil davomida 5145 nomda kitoblar joylashtirildi. Professor va o'qituvchilar va talabalarga qulaylik yaratish maqsadida Axborot-Resurs markazidan masofadan turib foydalanishlari uchun <https://t.me/aqxaiarm> saytkasi ostida Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti Axborot-Resurs markazi telegramm kanali xamda <https://t.me/aqxai> ARM guruxi tashkil etilgan.

Bundan tashqari ARMda 20 ta kafedralarda o'qitiladigan fanlarning o'quv-uslubiy majmulari elektron nusxalari joylashtirilgan.

Fanlar kesimida o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasi

2022-2023 o'quv yilida institutda 29 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va 27 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'tiladigan barcha fanlar namunaviy fan dasturida berilgan o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik kafedralar kesimida muntazam o'rganib boriladi.

2023-yil yil davomida electron resurslardan foydalanuvchilar qatnovi 3367 ta, foydalanilgan electron resurslar 14 097 nomdani tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 20 apreldagi №02/35-20/04-42-sonli xatiga asosan kutubxona fondidagi o'quv adabiyotlarini to'liq elektron shaklga o'tkazish reja grafigi ishlab chiqilgan.

2023-yil davomida 494 nomda darslik va 1044 nomda o'quv qo'llanmalar, 1088 nomda ilmiy adabiyotlar electron shaklga o'tkazildi.

2023 yil 09.02 №129-01-10 sonli xaiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 04 fevral 02/35-04/02-09-sonli xati ijrosini ta'minlash maqsadida Andijo qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutuda fanlarni o'quv adabiyolari bilan ta'minlanganlik holati va 2020-2022 yillarida xarid qilingan xorijiy adabiyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ilovada keltirilgan jadval asosida yuborildi.

O'zbekisto Respublikasi Adliya Vazirligi Andijon viloyat adliya boshqarmasining taqdimnomasi 2023 yil 16-mart 12/1-3/277-son xaiga asosan mas'ullar ushbu holat bo'yicha muallifning asarlarini zudlik bilan veb-mas'uliyat bilan yondoshish xususida ogohlantirildi va ijrosi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 27.03.2023-yil 04/29-27/03-2023-son xatiga asosan Oliy ta'lim muassasalarining axborot-resurs markazlarini moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida 3 (uch) ta ilovada ko'rsatilgan ro'yxatga asosan ijrosi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 iyuldagi **"Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"**gi PQ-216 sonli qarori 1-ilovasi 4 bandi ijrosini ilovada keltirilgan jadval asosida yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining 2023 - yil 10-iyundagi "Yangi tahrirdagi " O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mohiyati va ahamiyati keng jamoatchilikka yetkazish va tushuntirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3271-IV-son qo'shma qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining 21-bandida Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani targ'ibqilish ucun burchak tashkil etildi. Ijrosi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 26-oktabr'dagi 03/51-02-153-sonli xati ijrosi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyuldagi "Agrar sohada ilm-fan ta'lim va ishlab chiqarishni integrasiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-216-son qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 4.2-bandiga asosan talab etilayotgan yangi adabiyotlar, davriy matbuotnashrlari yagona reyestrini hamda ular bo'yicha yetakchi xorijiy davlatlarda chop etilgan adabiyot va nashrlar ro'yxatini shakllantirib yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-dekabr 03/51/02-250-son xatiga asosan ilovaga muvofiq ijrosi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 15-noyabr 03/51/03-02/14-212-son xatiga asosan 1,2-ilovaga muvofiq ijrosi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 03.11.№1115-03-10 sonli xatiga asosan jadval asosida taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-dekabr 02/02-02/14-220-son xati yuzasidan ilovaga asosan ijrosi ta'minlandi.

Axborot-resurs markazida o'tkazilgan tadbirlar:

Mir Alisher Navoiy tavalludining 582 yilligiga 8-fevral kuni **"Sheriyat mulkining sultoni"** mavzusida tadbir o'tkazildi. Tadbirda O'simliklar himoyasi, agrokimyo va tuproqshunoslik fakul'teti 2-bosqich talabalari qatnashdilar.

2023-yil 13-fevral kuni Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligiga bag'ishlab **"Bobur Andijon farzandi"** mavzusida sheriyat kechasi o'tkazildi. Kechada Agrobiologiya fakulteti 1-bosqich talabalari faol qatnashdilar.

2023-yil 9-fevral kuni Axborot-resurs markazida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar insituti boshlang'ich tashkiloti, Axborot-resurs markazi hodimlari hamkorlikda **"Zakovat"** intellectual klubi NNT tomonidan yoshlarni yanada bilimli, zukko, teran fikrga ega qilib voyaga yetkazish maqsadida istitu talabalaridan tashkil topgan 22 ta jamoa o'rtasida zakovat inellekual o'yini mavsumiga star berildi.

2023-yil 21- fevral kuni Axborot-resurs markazining №2-son talabalar turar joyida **"Kiob bilim olamiga ko'prik"** mavzusida kitobxonlik kechasi o'tkazildi.

1-mart O'zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi Zulfiyaxonim tavalludining 108 yilligiga 2023-yil 28-fevral kuni **"Zulfiyaxonim o'zbekim malikasi"** mavzusida tadbir o'tkazildi. Zulfiyaxonimning yozgan sheriy asarlaridan kitob ko'rgazmasi tashkil etildi.

2023-yil 9 - aprel kuni Axborot-resurs markazi xodimlari va instiutning barcha fakultet 1-bosqich talabalari bilan 9-aprel Sohibqiron Amir Temur tavallud kuniga bag'ishlab **"Amir Temurni anglash-o'zligimizni anglash demakdir"** mavzusida davra suxbai o'kazildi.

12- aprel Yozuvchi olim, publitsist va tarjimon Habib Siddiq tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan **"Hayot yo'li ibrat maktabi "** mavzusida adabiy-badiiy anjuman o'tkazildi.

Axborot-resurs markazining №2 talabalar turar joyida 9-may Xotira va qadrlash kuni, hamda 2-jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabaga 78-yil

bo'lishi munosabati bilan "Inson qadri va xotirasi muqaddas" mavzusida xotira kechasi o'tkazildi.

2023-yil 15- iyun kuni Axborot-resurs markazida "Eng faol kitobxon" mavzusida kiobxonlik kechasi o'tkazildi. Tadbirda insitutning agrobiologiya fakultetining agronomiya ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari faol qatnashdilar. Tadbir juda qiziqarli o'tdi va shu kabi tadbirlar institutda davom etmoqda. Faol qatnashgan talabalarga instituning esdalik sovg'alari taqdim etildi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 34 yilligi munosabati bilan O'simliklar himoyasi va karantini ta'lim yo'nalishi talabalari va Axborot - resurs markazi hodimlari hamkorlikda "Til millat ko'zgusi" mavzusida tadbir o'tkazildi.

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining tadbirlar zalida 8-dekabr konstitusiyamizning 31 yilligiga bag'ishlab "Qomusimiz - xuquqiy hayot ko'zgusi" mavzusida tadbir o'tkazildi.

1. Tadbirda ARM hodimlari
2. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor
A. Maxsudaliyev
3. Andijon viloyati Inson xuquqlarini himoya qilish bo'yicha mintaqaviy vakili
G. Abduvohidova
4. Xotin-qizlar xuquqlarini himoya qilish bo'yicha ayollar markazi raxbari X. Mirzaraximova
5. Adliya vazirligi xuzuridagi madad kuchlari bo'limidan O. Botirovlar qatnashdilar.

Tadbirda yoshlarni qiziqtirgan savollariga aniq va lo'nda javoblar berildi. Talaba yoshlar yangi konstitusiyamiz haqida yetarli ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Tadbir juda qiziqarli o'tdi.

Axborot-resurs markazi boshlig'i



I. Berdiqulova